



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№2 (812), 2026-yil 31-yanvar

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



■ Aks sado

YAQIN KELAJAKDAGI MUHIM VAZIFALAR BELGILANDI

O'tgan 2025-yilning 26-dekabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va ko'p millatli xalqimizga yo'llagan navbatdagi Murojaatnomasi mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim voqea bo'ldi.

Unda 2026-yilda yurtimizni yanada rivojlantirishga qaratilgan eng muhim vazifalar, aholi turmush sifatini oshirish, mahalla infratuzilmasini tubdan yaxshilashga qaratilgan aniq maqsad va vazifalar, ichki hamda tashqi siyosatdagi ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi.

Markaziy kon boshqarmasi yoshlar yetakchilari Kengashi raisi Saodat Boboyorova bu muhim hujjat haqida o'z fikrlarini bildirdi:

– Murojaatnoma mazmun-mohiyati bilan jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan, O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini belgilab beruvchi dasturiy hujjat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar huquqlarini himoya qilish, oila institutini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgani Murojaatnomaning insonparvarlik mohiyatini yanada yorqin namoyon etdi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida xotin-qizlarning qadr-qimmatini joyiga qo'yish, farzandlarimizni har tomonlama himoya qilish qadimdan xalqimizga xos bo'lgan oliy ma'naviy qadriyat ekanligini ta'kidlab, bu masala har bir erkak uchun sha'n va g'urur masalasi bo'lib kelganiga alohida urg'u berdi. Biroq, bugungi kunda jamiyatimizda ayollar va bolalarning turli zo'rvonliklarga uchrayotganligi barchamizni chuqur o'ylantirishi lozim. Bu salbiy holatlarga qonuniy chek qo'yish vaqti kel-

di. Chunki bunday holatlar yuksak ma'naviyat va ma'rifatga ega, oilani muqaddas deb bilgan xalqimiz tabiatiga mutlaqo yotdir. Aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bobi "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlanib, ularning huquq va erkinliklari Konstitutsiyamizda mustahkamlanib qo'yilgan.

Oila jamiyatning eng muhim tayanchi, millatning an'anaviy poydevoridir. Oilada sog'lom muhit, o'zaro hurmat va mehr-oqibat qaror topmasa, jamiyat taraqqiyoti haqida so'z yuritish qiyin. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, oilaviy zo'rvonlik faqat oilaning ichki ishi emas, balki butun jamiyatga daxldor ijtimoiy muammodir. Shu bois bunday holatlarga nisbatan befarqlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Himoyaga muhtoj ayol va bolani o'z muammosi bilan yolg'iz qoldirish insoniylikka ham, fuqarolik burchiga ham to'g'ri kelmaydi. Shu boisdan Murojaatnomada ayollar va bolalar-

ga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish bo'yicha respublika miqyosida samarali, ishonchli va barqaror tizim yaratish vazifasi qo'yildi. Bu borada barcha davlat idoralari va keng jamoatchilikni safarbar etish zarurligi qayd etildi.

Yurtboshimiz har bir murojaatlarida yoshlar masalasiga alohida to'xtalib o'tadi. Bu Murojaatnomada ham yoshlar uchun joriy yilda keng imkoniyatlar yaratilishi to'g'risida so'z yuritildi.

Har yili O'zbekiston mehnat bozoriga qariyb bir million nafar yoshlar kirib kelmoqda. Yoshlarni munosib ta'lim bilan qamrab olish, ularni zamonaviy va talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'qitish hamda barqaror ish o'rinlari bilan ta'minlash maqsadida mamlakatimizda mehnat bozorini tubdan yangilashga qaratilgan yangi arxitektura shakllantirilmoqda.

Ushbu yondashuvga ko'ra, mehnat bozori kasb, malaka, texnologiya va ta'limni o'zaro bog'laydigan yagona va samarali mexanizm sifatida faoliyat yuritadi. 2026-yildan boshlab har yili kamida 100 ta texnikum to'liq ta'mirlanib, zamonaviy texnologiyalar hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga mos ravishda jihozlanadi.

Shuningdek, Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy va Koreya kabi davlatlarning ilg'or ta'lim dasturlari joriy etilgan texnikumlar soni 100 taga yetkaziladi. Rejaga muvofiq, 2026-yilda 7 ta viloyatda, 2027-yilda esa mamlakatning barcha hududlarida ilg'or kasbiy mahorat texnikumlari va "Kasblar shaharchasi" faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Shu bilan birga, xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga 43 trillion so'm yo'naltirilishi belgilangan. Tibbiyot tizimida ham

kasbiy ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Germaniya, Shveysariya, AQSH va Yaponiya kabi davlatlarning ilg'or ta'lim dasturlari joriy etilib, xalqaro talablarga javob beradigan, xorijiy tillarni biladigan hamshiralar tarkibi shakllantiriladi.

Bugungi yoshlar — Yangi O'zbekistonni barpo etayotgan avlod, keng ko'lami islohotlarning bevosita ishtirokchisi va davomchisidir. Shu nuqtayi-nazardan qaraganda, yosh avlod orasida huquqiy ongni yuksaltirish, zo'rvonlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash borasida tizimli ishlar olib borish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Yoshlar har qanday holatda ham inson qadriini himoya qilish, adolat va haqiqat tomonida turishni hayotiy tamoyil sifatida qabul qilishi lozim.

Prezidentimiz Murojaatnomasida ilgari surilgan g'oyalar nafaqat huquqiy, balki ma'naviy jihatdan ham jamiyatni yangilashga qaratilgan. Zero, qonunlar qanchalik mukammal bo'lmasin, agar jamiyatda ma'naviy immunitet, mas'uliyat va befarqlikka qarshi qat'iy pozitsiya shakllanmasa, kutilgan natijaga erishish qiyin. Shu ma'noda, oila muqaddasligini asrash, xotin-qizlar va bolalarni himoya qilish har bir fuqaroning burchiga aylanishi kerak.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar izchil amalga oshirilsa, jamiyatda zo'rvonlikka nisbatan murosasiz muhit qaror topadi, oilalarda sog'lom ma'naviy muhit mustahkamlanadi. Yoshlar esa ushbu maqsadlar yo'lida faollik va yuksak mas'uliyat bilan harakat qilib, Murojaatnomada ilgari surilgan g'oya va vazifalarni hayotga tatbiq etishda ishonchli kuch sifatida maydonga chiqishi shub-

hasiz.

Shuningdek, Murojaatnomada mahallani rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berildi. Ayniqsa, mahallalarni taraqqiy ettirishda kompleks yondashuv joriy etilishi joylarda yillar davomida to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etishga qaratilgan muhim qadam sifatida e'tirof etildi. Davlatimiz rahbari har bir viloyatda 2–3 tadan tuman tanlab olinib, ulardagi barcha mahallalarda mavjud ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bir vaqtning o'zida hal etishni ko'zda tutuvchi yangi tizim joriy etilishini ta'kidladi. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun barcha manbalar hisobidan jami 8,5 trillion so'm mablag' yo'naltirilishi belgilab qo'yildi.

Bugungi kunda yoshlar mahalla hayotining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Shu bois mahallalarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan dasturlar yoshlarning tashabbuslari, startap g'oyalari va ijtimoiy loyihalarini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam zamin yaratadi. Biz, yoshlar, ushbu islohotlarning mazmun-mohiyatini chuqur anglab, ularning amalga oshirilishida faol ishtirok etishimiz lozim.

Ishonch bilan aytish mumkinki, Prezidentimiz belgilab bergan mazkur strategik vazifalar amalga oshirilib, mahalla chin ma'noda inson manfaatlarini ta'minlanadigan, tadbirkorlik rivojlangan, yoshlar uchun imkoniyatlar keng bo'lgan zamonaviy ijtimoiy makonga aylanadi. Bu esa Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim tayanchi bo'lib xizmat qiladi.

Dildora KARIMOVA suhbatlashdi.

■ Islohot va samara

O'ZGARISHLARDAN YURT OBOD, DILLAR SHOD

Surxondaryo – respublikamizning janubiy vohasi! Yaratganning o'zi bu zaminni beqiyos saxovati, barakasi bilan siylagan.

Oltinsoy, Sangardak, Sayrob, Darband, Xonjizza, Bobotog', Omonqo'ton singari so'lim go'shalari, sayyohlik maskanlari, shifobaxsh buloqlari, purviqor tog'lari bilan mashhur. Zarautsoy, Teshiktosh g'orlari, Bobotog' va Boysuntog' qoyalaridagi rasmlar, Baqtriya, Kushon kabi ko'hna davlatlar tarixi, Dalvarzintepa, Kampirtepa, Zartepa qal'asi singari noyob yodgorliklari uning qadim o'tmishidan darak beradi.

Bu viloyatga oxirgi marta borganimga o'n yilcha bo'libdi. Hayratda qoldim, haqiqatda voha bugun tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketibdi. Chak-chak, Darbandni oshib, viloyatga kirib borar ekan-siz, hududning go'zal tabiati, qishloqlari jamoli beixtiyor qalbingizni maftun etadi. Ayniqsa, viloyat markazi - Termiz shahrida olib borilgan ulkan qurilish-bunyodkorlik ishlarini ta'riffashga so'z o'ziz.

Hududning qayeriga bormang, qaysi Alpomish, Barchin kelbat odamlar bilan suhbatlashmang, ular hayotidan roziligi, shukronaligi, oriyatli va mehmondo'st elning yaratuvchanlik ishlari bilan band ekani, viloyat iqtisodiyoti jadal rivojlanib borayotganiga yaqqol guvoh bo'lasiz...

Navoiy kon-metallurgiya kombinati dunyoga mashhur kompaniya bo'lib,

Yangi O'zbekiston iqtisodiyotining yirik "drayveri" hisoblanadi. Gigant korxona o'zining ko'plab hududlar, ya'ni, Navoiy, Samarqand, Jizzax, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida har xil yo'nalishlar bo'yicha o'z korxonalariga ega. Shulardan biri - Termiz mexanika zavodidir.

Zavod bundan o'n yil avval ishga tushirilgan. Buning ortidan ko'plab aholi, yoshlar ishlari bo'ldi. Bu, viloyatda mahalliy lashtirilgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, xo'jalik yurituvchi subyektlarga qulayliklar yaratish, mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratish va hududda oz bo'lsada ishsizlikni pasaytirish, kambag'allik darajasini qisqartirish maqsadida tashkil etilgan. Chunki, vohada aholi o'sishi, har yili mehnat bozoriga yoshlar kirib kelishi hisobiga bandlik va xizmatlarga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgani ayni haqiqatdir.

- Natijada, hududga sanoatning yangi yo'nalishi kirib keldi va zamonaviy korxona qad rostladi. Odamlar ishlari bo'lib, bugun kasbining ortidan daromad topayapti. Lekin bu bugungi natija. Kelajakda ham zavodda mahsulotlar turlarini ko'paytirish, korxona ishlab chiqarish quvvatini oshirish mo'ljallanmoqda. Chunki, izlab topsa bo'ladigan imkoniyatlar mavjud, — deydi zavod direktori Olimjon Mingliyev. — Jamoamiz bilan belgilab berilgan rejalarni o'z vaqtida bajarib, kombinat yutuqlariga o'z hissamizni qo'shib kelayotganimizdan xursandmiz.

Bugungi kunda zavodda metallarga ishlov berish, metalkonstruksiya jihozlar, ehtiyot qismlar, metallardan har xil turda idishlar, sig'imlar, qurilish sohasi uchun qoliqlar tayyorlash, ta'mirlash va payvandlash ishlari amalga oshirilib, viloyat korxonalari uchun mashinasozlik,

qishloq xo'jaligi, qurilish yo'nalishlarida xizmatlar ko'rsatib kelinmoqda. Izlagan imkon topar, deganlaridek, o'tgan o'n yillikda jamoa tomonidan 300 turdan ortiq mahsulot turlarini o'zlashtirishga erishildi.

— Hozirgi kunda zavodimizda yettita uchastka mavjud bo'lib, ish ikki smenada tashkil etilgan. Ma'lumot o'rinda aytish mumkinki, har yili o'rtacha 500 tonnadan ziyod tayyor mahsulotlar ishlab chiqarayapmiz. Jamoamiz yetuk, fidoiy mutaxassislar, yoshlardan tashkil topgan. Ishlar tizimli olib borilayotgani, hamkasblarimiz fidoiyligi tufayli rejalar o'z vaqtida ortig'i bilan bajarilmoqda, — deydi bosh muhandis Olim Dusyarov.

Zavod nafaqat kombinat bo'linmalarini, balki mahalliy ishlab chiqaruvchilarni, tadbirkorlarga ham sifatli xizmat ko'rsatib kelayotir. Buning natijasida korxona ishlab chiqarayotgan sifatli va xaridor-gir mahsulotlarga, xizmatlarga bo'lgan talab yildan yilga ortib bormoqda. Hozirgi kunda "Sherobod sement zavodi" MCHJ, "Surxonsementinvest" XK, "Surxondaryo hududgaz" MCHJ va boshqa subyektlar bilan hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bundan ishlab chiqaruvchi ham, buyurtmachi ham xursand.

Ayni paytda zavodda 52 nafar ishchi-xodim mehnat qilib, 24 nafarini yoshlar va xotin-qizlar tashkil etadi. Ular orasida mehnati bilan hamkasblariga o'rnak bo'lib kelayotganlar ko'plab topiladi. Islom Kamolov, Nurqobil Haydarov, Baxtiyor Turobov, Muhriddin Omonov, Bahodir Ro'zimuratov, Botir Imomov, Sunatillo Mirzaqulov va Sharofiddin Tursunovlar ana shunday ilg'orlardan hisoblanadi.

Ijodiy safar davomida korxona yutuqlari, kelgusi rejalari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'ldik...

Davomi 2-betda ➡

■ Dolzarb mavzu

Navoiy kon-metallurgiya kombinati hamda viloyat Ichki ishlar boshqarmasi hamkorligida axborot texnologiyalari orqali sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olish hamda kombinat ishchi-xodimlarining kibermadaniyatini oshirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlari davom etmoqda.

HUSHYOR BO'LING, FUQAROLAR



Shu kabi targ'ibot tadbirlari Markaziy, Shimoliy va Janubiy kon boshqarmalarida uyushqoqlik bilan tashkil etildi. Unda, viloyat IIB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasining F.Ro'ziyev, B.Xojimurodov, Sh.Berdiyev, A.Nurmurodov, J.Jo'rayev, shuningdek NKMK IIBning O'.Ashurov va F.O'ktamovlar singari mas'ul xodimlari, mavzuga doir ma'ruzalar qilishdi.

— Tadbirlarda kibernetik jinoiyatlarning keng tarqalayotgan turlari, ulardan himoyalalanish usullari, turli shubhali xabar va qo'ng'iroqlarga ishonmaslik, internet makonida xavfsizlik qoidalariga amal qilish kabi muhim masalalar mas'ul xodimlar tomonidan atroflicha tushuntirildi.

Ayniqsa, ichki ishlar organlari xodimlarining slayd va videoroliklar orqali o'tkazgan taqdimotlari, shuningdek, ishchi-xodimlarga tarqatilgan axborot materiallari tadbir ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otdi. Asosiy maqsad — hamkasblarimizni kibernetik jinoiyatlarning salbiy ta'siriga tushib qolishidan saqlash. Shu bois barcha masalalar hayotiy misollar asosida tushuntirildi, — deydi Markaziy kon boshqarmasi xodimi I.Rajabov.

Tadbir yakunida ishchi-xodimlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan atroflicha javob oldilar. Ayni paytda bunday targ'ibot tadbirlari kombinatning boshqa bo'linmalarida ham davom etmoqda.

D.TO'LQINOVA.



■ **Islohot va samara**

O'ZGARISHLARDAN YURT OBOD, DILLAR SHOD

■ **Oxiri. Boshlanishi 1-betda**

Barcha ishlab chiqarish uchastkalarida ish qizg'in. Stanoklar, uskunalar shovqini bir zum ham tinmaydi. Hamma o'z ishi, vazifasi bilan band. Bo'sh qolishga aslo fursat yo'q. Chunki, har bir ishchi-xodimga reja qo'yilgan. Uni o'z vaqtida, sifatlari bajarish yuksak mas'uliyat va majburiyat ekanini barcha yaxshi anglaydi.

Bahrom Xoliqulov yetakchiligidagi mexanik ishlov berish uchastkasi ham peshqadam bo'linmalardan biri. Mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasiga rioya etish joy-joyida. Ishchilar maxsus kiyim va boshqa kerakli himoya vositalari bilan ta'minlangan. Quvontiradigan jihati, jamoa asosan yoshlardan tarkib topgan. Ular zamonaviy stanoklarni mahorat bilan boshqarib, metallarga did bilan "jon kirgizmoqda". Har bir ishchi-xodim g'ayrat-shijoatidan kasbining hadisini olgani, us-toz ko'rgani, o'qigani yaqqol seziladi. Ularning ish jarayoniga qarang, biz ham zavqlandik.

– Kundalik ishimiz shu. Qishloq xo'jaligi texnikalari, nasoslar uchun ehtiyot qismlar, turli o'lchamdagi qora va rangli metallarga bolt-gaykalar tayyorlaymiz, ularga ishlov beramiz va shu kabi o'nlab yo'nalishdagi ishlarni bajaramiz, – deydi keng profili stanokchi Husniddin Ismoilov. – Zavodga to'rt yil burun ishga kelgandim. Xudoga shukur, olayotgan oyilgimizdan ro'zg'orga baraka kirayapti, qozonimiz qaynayapti, farzandlarimiz o'qitayapmiz, uy-to'y qilayapmiz.

Behruz Amanov, Sayfullo Shonazarov, Azamat Bozorov, Avaz G'appravov, Muhriddin Do'lanov, Muhiddin Jo'rayev, Shohakim Turobov singari fidoiylar boshqalarga o'mak bo'lib, zavod yutuqlariga munosib hissalarini qo'shib kelayotgani e'tirofga molikdir.

Termik ishlov berish uchastkasida ham ish jarayoni bir maromda davom etmoqda. Kasbidan mamnun ishchilarda bir muddat tinim yo'q. Yuqori haroratda metallarga ishlov berish, toblash, qattiqligi, mustahkamligi va elastikligini ta'minlash jamoaning asosiy vazifasi. Shuningdek, ishchilar yuqori kuchlanishda tishli g'ildiraklar, vallar, metallarning tashqi va ichki yuzalariga termik ishlov berish ishlarni ham maromiga yetkazib bajarmoqda.

Pechlar "og'iz"idan otash ufuradi... Olov taftiga yaqinlashib bo'lmaydi. Lekin, peshanasidan reza-reza ter oqayotgan ishchilar bunga o'rganib, ko'nikib ketgan. Jamoa vakillari bilan ancha suhbatlashdik. Shu bahona yaqindan tanishdik, ish jarayonini kuzatdik. Ularning har bir xatti-harakati havas qilgulik. Bilanizki, ilg'orlar orasida ham ilg'orlari bo'ladi. Aytishlaricha, Bahrom Bayniyazov yetakchiligidagi jamoa va uning Ravshan Quvvatov, Behruz Asatov, Timur Qudratov singari elektromexaniklari ana shunday mehnatda toblangan, o'z ishini haqiqiy ustalari ekan. Qizg'in ish jarayoni bo'lgani uchun ularga halaqit bergimiz kelmadi...

Keyingi manzilmiz metall konstruksiyalarni yig'ish uchastkasi bo'ldi. Bu yerda asosan metallarni kesish, bukish, qirg'ish, payvandlash kabi ishlar, jumladan, gidrotsiklonlar yordamida turli o'lchamdagi metall konteynerlar, sig'imlar, metall stollar, shkaflar, nasoslar, shxaltalarga rolklar, qurilish sohasi uchun metall qoliqlar, tishli birik-

malar, yoritgichlar uchun ustunlar, panjaralar, bunkerlar, darvozalar, turli ehtiyot qismlar tayyorlanmoqda.

Bu ishlarni amalga oshirish, ya'ni, metallarni kesish, qirg'ish uchun zamonaviy stanoklar doimiy harakatda. Ularni mahorat bilan boshqarib, qaysidir detalni tayyorlayotgan ishchi karjomasidagi yig'itlarning butun diqqati ishd. O'n ton-nagacha yukni ko'tarib-tushirish qudratiga ega kranda esa tinim yo'q. Rasul Mavlonov, Bobomurod Hayitov, Zarif Hamroyev, Sherzod Xaliyev, Bahodir Ro'zimurodov, Alisher Bobomurodov, Eson Saidqulov, Rustam Sheraliyevlar shu uchastkaning fidoiylaridan ekan. Jamoa ishini ko'zimiz bilan ko'rib, ular ishi, yutuqlari e'tirofga munosib ekaniga imon keltirdik.

Zavodning qozon payvandlash uchastkasida mehnat qilayotgan Botir Imomov yosh, ammo uncha-muncha hayotni ko'rib qo'ygan, ko'p qi-yinchiliklarni boshidan o'tkazgan yigit ekan. An-cha vaqt ishsiz bo'lib, Rossiyagacha mardikorlikda ishlab kelgani, oilasidan uzoqdagi saron-sargardonchiliklar, bu faqat quruq hoyu-havas bo'lganini yashirmay so'zlab berdi. Otasi ancha avval vafot etib, onasi qo'liga katta bo'lgan va ayni paytda oilaning yolg'iz boquvchisi bo'lgan suhbatdoshimiz shunday deydi:

– Termiz san'at kollejni tugatganman. Kasbim bo'yicha ish topolmadim. Shunda, tavakkal qilib, o'zga yurtlarni ham kezib keldim. Qayerda, ishim yurishmadi. Na iloj, ona-Vatanimga, Gulqamar onam bag'riga qaytdim. Ana shunday kunlarning birida yangi zavod ochilayotganini eshitib, ikkalan-gan holda u yerga bordim. Chunki, qo'limda "artist" diplomi, fikru xayolimda esa mutaxassis-ligim to'g'ri kelmaydiku, shunga, ishga olmasa keragov, degan qarash ham yo'q emasdi. Albatta, dunyoda yaxshi odamlar ko'p. Zavod ma'muriyati vakillari meni diqqat bilan tinglab, sharoit-imni tushunib, kasbga o'qishga tavsiya berishdi. Suhbatdan ishim o'nglanib, yaxshi taassurot bilan chiqdim. Bir yarim oy Navoiy shahridagi kombinat o'quv markazida yangi kasbga o'qidi-m. Mana yetti yildirki, ishlayapman. Oylik maoshimni to'plab, o'ylandim, to'ylar qildim, yaqinda mashina oldim. Bundan hamma, onam, oilam, uch nafar farzandlarim xursand, – deydi Botirjon Imomov. – Albatta, oilasidan, ish joyidan ko'ngli xotirjam, ro'zg'ori but inson hayotida mazmun, ishida unum bo'ladi.

Eng muhimi, qahramonimiz nafaqat ishdan, balki erishgan baxtidan, turmush o'rtog'i Jayrona kelin bilan ahillikda tabarruk yoshdagi mehribon enasining xizmatini qilayotgani, duosini olayotgani, bir-biridan shirin E'zoza, Shohzamon va Dunyo kabi farzandlari tinch-totuv, farovon oila bag'rida shodon kamolga yetayotganidan mamnun.

Ha, jamoa birdamligi, har qanday mashaqqat va sinovlardan cho'chimaydigan, o'z kuchi, bilimiga ishongan, taqdiri, kelajagini halol peshana teri, qadoq qo'llari bilan yaratayotgan olisdagi hamkasblarimiz g'ayrati, yutuqlari har qanday tahsinga munosibdir. Amalda nimalarga qodiril-gini isbotlab kelayotgan kichik zavodning mehnat-kash insonlari bundan keyin ham yanada yuksakroq marralarni zabt etishiga ishonamiz.

Abdumajid JO'RAYEV.

■ **Yakun va tahlil**

INVESTITSIYA DASTURI – AMALDA!

Mustaqillik yillari, ayniqsa, keyingi yillarda Shimoliy kon boshqarmasi faoliyatida yangi sahifa ochildi. Bu davrda amalga oshirilgan yirik investitsion loyihalar boshqarma korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirib yubordi. “Qoqpatas va Dovg'istov oltin konlarida ma'dan qazib olish (III navbati)” kabi muhim ahamiyatga ega investitsion loyiha shular jumlasidandir. O'tgan yili kon boshqarmasida 132 million kubometr tog' jinslari qazib olinib, 15 million tonna ma'dan qayta ishlandi. Natijada bo'linma NKMKning ilg'or bo'linmalaridan biriga aylandi.

Investitsiya loyihasi doirasida 3-gidro-metallurgiya zavodida 7- va 8-tegirmon bloklari ishga tushirildi. Natijada korxonaning yillik ishlab chiqarish quvvati 10 million tonnaga yetkazildi, flotatsiya sexini kengaytirish evaziga bir sutka-da qayta ishlash hajmi 23 ming tonnadan 28 ming tonnaga oshirildi. Booksidlash sexida yangi 9-, 10-biooksidlash modullari ishga tushirildi. Amaldagi 48 ta bioreaktorga 12 ta bioreaktor qo'shildi. Bu, o'z-o'zidan sulfid konsentratsiyalari ishlab chiqarishni 25 foizga, tayyor mahsulot hajmini 12 foizga oshirish imkonini berayapti. 2024-2026-yillarga mo'ljallangan loyiha doirasida kapital qurilish-montaj ishlariga 66 ming dollar yo'naltirildi. 221 ming dollarga zamonaviy kon texnikalari, vagon dumpkarlari va boshqa uskunalar xarid qilindi.

Shunisi quvonchliki, kon boshqarmasida muqobil elektr manbalariga o'tish maqsadida 2550 kVt quvvatga ega quyosh fotoelektrstansiyalari qurilib ishga tushirildi, ishlab chiqarish obyektlariga 1210 dona quyosh suv isitish tizimlari o'rnatildi. “Feruza” nimstansiyasida modernizatsiya ishlari olib borilmoqda.

Bu kabi loyihalar ishlab chiqarish jarayonlari xavfsizligini ta'minlash bilan birga ma'dan qazib olish hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, 14 ta sulfidli karerlarda tog'-kon ishlari bajarilayotgan “Dovg'istov” konida 2025-yilda kon massasi qazib olish bir yil oldingiga taqqoslaganda 25 foizga oshdi. “Qoqpatas” konida kon massasi qazib olish 57 mln kubometrqa yetkazildi.

Investitsion loyihalar tabiiyki, hududlar iqtisodiyotining turli sohalariga daxldor bo'ladi. Qurilayotgan sanoat obyektlari mintaqalarning ishlab chiqarish, transport va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda katta



hajmdagi mehnat resurslarini talab qiladi. Bu esa mahalliy aholining turmushi va bandlik darajasi-ga ijobiy ta'sir qilmasdan qolmaydi.

“Qoqpatas va Dovg'istov oltin konlarida ma'dan qazib olish (III navbati)” investitsion loyihasi tufayli koxonada 1308 ta yangi ish o'ri yaratilishi buning yaqqol isbotidir.

Ishchi-xodimlarni ijtimoiy himoya qilish, ular uchun munosib ish, yashash sharoitlarini yaratib berish rahbariyatning doimiy e'tiborida bo'layapti. Bugun kombinat bo'linmalari joylashgan qaysi hududga bormang, barchasida mehnat

ahli uchun yaratilgan sharoitlarni ko'rib, dilingiz yayraydi. 2025-yilda Qizilqum cho'lining qoq markazida “Dovg'istov” koni ishchilari uchun 174 o'rinni yotoqxona, maishiy sharoitlariga ega 80 o'rinni oshxona, 154 o'rinni yuvinish va kiyinish xonalari va boshqa zaruriy imkoniyatlarga ega majmua foydalanishga topshirildi. Yotoqxona qurilishi Shimoliy kon boshqarmasining o'z ku-chi bilan amalga oshirilib, qurishlash va jihozlash ishlariga 6 mlrd. so'mdan ortiq mablag' sarflan-

di. “Qoqpatas” koni ishchi-xodimlari uchun 250 o'rinni oshxona, 3-GMZ hududida Shimoliy kon boshqarmasining Markaziy fizika, kimyo va biologik laboratoriyasining yangi binosi foydalanish-ga topshirildi.

Hozirgi vaqtda “Qoqpatas” va “Dovg'iztov” konlarining oltin tarkibli ma'dan zahiralarni tasdiqlash bo'yicha geologiya-qidiruv ishlari olib borilmoqda.

Laylo KARIMOVA.

■ **Xabar**

YANGICHA HAYRAT BILAN

Yakunlangan yil “Qizilqum” kon boshqarmasi “Pistali” koni jamoasi uchun sermahsul, quvonchli natijalarga boy bo'ldi. Jamoaning fidokorona mehnati, yuksak mas'uliyati va qat'iy intilishi tufayli ishlab chiqarish rejalari bajarildi.



– So'nggi yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, avtomatlashtirish va raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlar o'z samarasini bermocda, – deydi kon bosh muhandisining burg'ilash va portlatish ishlari bo'yicha o'rinbosari O'ktam Qudratov. – 2023-yilda 9,5 million kubometr, 2024-yili 15,6 million kubometr va o'tgan yili 16,7 million kubometrqa yaqin tog' jinslari qazib olingan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkichni 21,5 million kubometrqa yetkazish mo'ljallangan. Shu bilan birga, burg'ilash ishlari bo'yicha ham sezilarli o'sish qayd etildi. Xususan, 2025-yilda 1,2 million pogon metr burg'ilash ishlari amalga oshirilib, reja 116 foizga uddalandi. Bu ishlarni amalga oshirishda 119 ta turli rusumdagi kon texnikalari, zamonaviy avtoag'dargichlar, yo'l-qurilish mexanizmlari, yordamchi transportlar imkoniyatidan keng foydalanilmoqda.

O'tgan yili “2-G'arbiy Pistali” konining foydalanishga topshirilgani ma'dan qazib olish va qayta ishlash ko'rsatkichlarini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

“Pistali” koni jamoasi ayni kunlarda rejalarni yanada oshirib bajarish maqsadida g'ayrat-shijoat bilan mehnat qilmoqda.

“NKMK” AJ Matbuot xizmati.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash, yirik investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirish hamda yangi sanoat obyektlarini o'z vaqtida barpo etishda temir yo'l transporti muhim o'rin tutadi.

IQTISODIYOTNING QON TOMIRLARI

Ayni paytda korxona balansida 430 kilometr-dan ortiq temir yo'l tarmoqlari, 54 ta teplovovz hamda 900 ta vagon mavjud bo'lib, ular ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. O'tgan yili respublika-mizdagi mahalliy ishlab chiqaruvchi – “Toshkent yo'lovchi vagonlarini qurish va ta'mirlash zavodi” AJda ishlab chiqarilgan 15 dona zamonaviy passajir vagonlari olib kelindi. Shuningdek, joriy yilda lokomotiv va vagon xo'jaligini texnik jihatdan yangilash ishlari ham davom ettirildi. Yaqin vaqt ichida 12 dona 60 tonnalik va 95 dona VS-67 markali o'zi ag'dargich vagonlar hamda 6 dona manevr, 2 dona magistrall teplovovzlari ma'dan tashish jarayonlariga jalb etildi. Ikki dona MPT-6 markali motovoz (Temir yo'llarni ta'mirlashga mo'ljallangan kichik lokomotiv va transport vositasi) keltirilib, ulardan temir yo'l liniyalarini qurish, joriy ta'mirlash va saqlash ishlarida foydalanish ko'zda tutilgan.

So'nggi yillarda yangi temir yo'l liniyalarini qurish, mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish, lokomotiv va vagonlar parkini bosqich-ma-bosqich yangilash hisobiga tashish hajmlari barqaror o'sib bormocda. Jumladan, 2025-yilda 72,5 million tonna oltin tarkibli ma'dan tashilgan bo'lsa, joriy yilda gidrometallurgiya zavodlariga

74,5 million tonnadan ortiq ma'dan tashish ko'zda tutilgan.

– 2026-yilda temir yo'l transporti sohasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, harakat xavfsizligini ta'minlash hamda zamonaviy logistika tizimini shakllantirishga qaratilgan qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan, – deydi “NKMK” AJ Temir yo'l transporti bo'limi boshlig'i Zafar Sayemov. – Shu yil 5-gidrometallurgiya zavodi va “Auminzo-Amantoy” koni oralig'ida 8 kilometrlik yangi temir yo'l izlarini qurishni rejalashtirganmiz. Ayni paytda ushbu loyiha jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Temir yo'l transportida profilaktik ta'mirlash ishlari raqamlashtirish, harakatni boshqarishda avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish orqali ekspluatatsiya samaradorligini oshirish va texnik nosozliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda. 2025-yilda temir yo'l sohasida faoliyat yuritayotgan 290 nafar xodimning malakasi oshirilib, 28 nafari qayta tayyorlash kurslarida o'qitildi. Joriy yilda esa 300 nafarga yaqin temiryo'chilarning zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish rejalashtirilgan.

Dildora TO'LQINOVA.



